


# Kun hikmati



Kun hikmati

Tartibni saqla va tartib seni saqlaydi.

Mehnatsiz yengil qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar shubhaga sabab bo'ladi.

Uch toifa odam hammaning nazarida yov: baxil, zolim va takabbur. Uch toifa odamni ko'rmay turib ham yaxshi ko'rish mumkin: olimni, saxiyni va odil kishini.

O'zimizning ezgu ishlarimizni namoyish qilishni istagan zahotimiz, u ish o'z ezguligini yo'qotadi.

O'zining qat'iy fikri bo'lmagan eng jasur kishi ham qo'rqoqqa aylanadi.

"Hikmatlar shodasi" kitobidan